

**O’ZBEK ADABIYOTIDA “ALOGIZM” TAMOYILIGA ASOSLANGAN BADIY
USLUBLAR BILAN BEZATILGAN ASARLAR.**

Samatova Zulhumor
zulhumorqosimova@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola o’zbek adabiyoti namoyondalari o’z hikoya, doston va asarlarida alogizm tamoyiliga asoslangan uslubiy vositalardan qanchalik foydalangani va misollari bilan qisqacha tanishishga bag’ishlangan.

Kalit so’zlar: alogizm, oksyumoron, antiteza, stilistika, uslub.

Annotation: This article is devoted to a brief acquaintance with examples of how the representatives of Uzbek literature used methodological tools based on the principle of alogism in their stories, epics and works.

Key words: alogism, oxymoron, antithetical, stylistic, style,

O’zbek adabiyoti va tili juda boy va sermazmundir. Ushbu maqolada mantiqiy aloqalarning buzilishi bilan bog’liq bo’lgan stilistik vositalar guruhi o’zbek adabiyoti misolida ko’rib chiqiladi.

Ozbekistan xalq yozuvchisi Otkir Hoshimov o’z asarlarida alogism tamoyiliga asoslangan vositalardan keng foydalangan. Otkir Hoshimov ijodi boshqa yozuvchilardan o’zining til tuzilishi bilan ajralib turadi. Uning asarlari nafaqat badiiy adabiyot, balki o’zbek tili rivojiga ham turki bo’lib xizmat qilmoqda. Yozuvchi ijodini tilshunoslik nuqtai nazaridan tahlil qilish ham til qonuniyatlarini chuqurroq anglashda o’ziga xos manba bo’lib xizmat qiladi.

Muallif syujet bilan birga qahramonlar xarakterini ham ochib berishga harakat qiladi. Bu jarayon asar qahramonlari tomonidan ifodalanadi, ya’ni bir qahramon ikkinchi qahramon haqida fikr bildiradi. Yozuvchi jarayonni o’quvchiga turli yo’llar bilan yetkazish uchun o’z mahoratini ishga soladi. Muallif ijodidan bir nechta misollar:

1) *Qizim bechoragayam qiyin. Erta ketib, kech keladi. Qiz bola boshi bilan traktor haydaydi.* (O’tkir Hoshinmov. “Ikki eshik orasi” Toshkent, ‘Sharq” 2012)

Erta-kech, kech keluvchi so’zlar bir-biriga ziddir. Yozuvchi bu voqeа orqali voqeani ochib berishga harakat qilgan. Bu voqeа onaning qiziga achinishini bildirgan. Alogizming anteteza uslubidan foydalangan.

2) *“Rost bilan yolg’onning o’rtasi to’rt enlik”, degan gap bor. Qiziq, nega endi oz emas, ko’p emas, to’rt enlik? Gap shundaki, ko’z bilan qulquning orasi to’rt enlik ekan. Eshitganingga emas, ko’rganingga ishon... Maqsad - shu... Nachora, hamma rost gapiravermaydi. Ammo yolg’on gapirayotgan odam ham ichida, baribir rostini o’ylaydi...* (O’tkir Hoshinmov. “Ikki eshik orasi” Toshkent, ‘Sharq” 2012)

3) *Katta vijdonsizliklar kichkina nopoklikdan boshlanishini bilsam nima qilay axir?* (O’tkir Hoshinmov. “Ikki eshik orasi” Toshkent, ‘Sharq” 2012)

Abdulla Qodiriy va H.Hamzalarning asarlarini tahlil qilib, o’zbek tilidan rus tiliga tarjimonlar qo’llagan zeugmatik konstruksiyalarni aniqladik. Masalan, A.Qodiriyning rus

tilidagi “Mehrobdan chayon” romanidan shunday zeugmatik konstruksiyalarni ko'rib chiqishimiz mumkin:

1. *O'sha kuni, hatto peshindan oldin ular hayotlarida birinchi marta vijdonli, sher yurakli odamni ko'rishdi.* (A.Qodiriy “Mehrobdan Chayon” Sharq nashriyoti, 2018)

2. *Darhaqiqat, inson foyda uchun yoki o'lim tahdidi ostida xiyonat qilishga qodir bo'lishi mumkin.* (A.Qodiriy “Mehrobdan Chayon” Sharq nashriyoti, 2018)

3. *Qabrim ustida qora yurakli lolalar gullaydi; ular sen va senga o'xshaganlar mening yuragimga tashlagan qora yaralar!* (A.Qodiriy “Mehrobdan Chayon” Sharq nashriyoti, 2018)

Yoki A.Qodiriyning rus tilida yozilgan “O'tgan kunlar” romanidagi shunday zeugmatik konstruksiyalar uchraydi:

1. *Chet ellik... bu xitoylik... yoki boshqa balo... Tushunmaganingiz uchun men sizga to'g'ridan-to'g'ri aytaman: lo'li...* (A.Qodiriy “O'tkan kunlar”G'ofur G'ulom nomidagi nashriyot, Toshkent, 2018)

2. *Tavba qilish meniki, kechirish seniki... ...* (A.Qodiriy “O'tkan kunlar”G'ofur G'ulom nomidagi nashriyot, Toshkent, 2018)

Abdulla Qahhor hijkoyariga nom qo'yishda oksimorondan foylalangan, misol uchun “Boshziz odam” hikoyasida asar qahramoni Fahriddin o'z aqli bilan emas, otasining aytganlari bilan ish qiladi:

Misol uchun:

“Ma, yo'lidan mayda-chuyda ol. Kirganidan keyin avval so'ra, yengil bo'lsa “hayriyat” degin. Sening yo'qliging uchun uyda tura olmayotibmna. Yomon bo'lar ekan degin.” (A. Qahhor. Qissa va hikoyalar, “Boshziz odam” Toshkent 2012)

Bunday aqlsiz, fikrsiz, o'zgapini topib gapira olmaydigan qahramon tasvirlangan asarga yozuvchi ixcham, lo'nda qilib “Boshziz odam” deb nom qo'yadi.

O'zbek adabiyotda allogizm tamoyiliga asoslangan vositalardan biri oksymoronlar obraz va xarakterlarning ijobiy hamda salbiy fazilatlarini ochib berishga xizmat kiladi. Misol uchun M.Yusufning «Qora quyosh» dostonini olamiz:

Menga juda aziz

Uning siymosi,

Bir qarasam,

Yo'qdek sira qiyosi.

U bir bag'ridaryo,

Bir bag'ritoshdir,

U bir quyosh

Ammo -

Qora quyoshdir!

Shoir “Qora kuyoshdir!” misrasida lirk qahramonni quyoshga qiyoslamoqda, biroq, tabiatda quyosh qora emas, sarik rangda bo'lib, olamga teng nur taratadi. Barcha tirik jonga issiqlik quvvatini berib, hayot baxsh etadi. Nima uchun shoir dostonda kuyoshni “sariq” emas, “qora” deb tasvirlagan? - degan savol tug'iladi.

Shoir quyoshni "sarik" emas, "qora" rangda tasvirlab, lirik qaxramon xarakteridagi salbiy tomonlarni «qora» so'zi zamiriga joylagan. Asarning mazmun-moxiyatini ustalik bilan "Qora quyoshdir!" oksyumoroni orqali ochib bergen. Oksyumoronlar prozada ham butun bir katta matnning mazmunini ochib berishga xizmat kiladi.

Xulosa kilib shuni aytish mumkinki, alogizm tamoyiliga asoslangan uslubiy vositalar uslubiy jihatdan ta'sir kuchi beqiyos bo'lgan, tasviriy vositalardir. Tilda nomantiqiy bog'lanishning bunday usuli matnning ta'sirchan va serjiloligini oshirishga, matnning mazmun-mohiyatini humoristik-satirik bo'yoq orqali ochib berishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. O'tkir Hoshinmov. "Ikki eshik orasi" Toshkent, 'Sharq" 2012
2. Abdulla Qodiriy "Mehrobdan Chayon" Toshkent, "Sharq nashriyoti" 2018
3. Abdulla Qodiriy "O'tkan kunlar" Toshkent, G'ofur G'ulom nomidagi nashriyot, 2018
4. Abdulla Qahhor "Qissa va hikoyalar" "Boshsiz odam" Toshkent 2012
5. Muhammad Yusuf "Qora quyosh" dostoni 1992